

YANGI TUZULISHLI TABIIY IPAK ASOSLI RO'MOLBOP GAZLAMA ISHLAB CHIQUARISH TEXNOLOGIYASI.

S.G' Axmadaliyeva

G.N Valiyev

t.f.d Farg'ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy ipakdan yangi turdagi ro'molbop gazlama ishlab chiqarish texnologiyasi keltirilgan. Ro'molbop gazlamalarning turini kengaytirish maqsadida tabiiy ipakdan yangi turdagi, strukturasi ragojka o'rilishi asosida bo'lgan, ipakli ro'molbop gazlamaning yangi turi, uning afzalliklari va imkoniyatlari haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: tabiiy ipak, chiziqli zichlik, tanda, arqoq, to'quv dastgohi, ro'molbop gazlama.

Аннотация: В этой статье представлена технология производства нового вида шарфовой газировки из натурального шелка. С целью расширения ассортимента платочных газонов поговорим о новом типе платочных газонов из натурального шелка, структура которых основана на жатве рагойка, о его преимуществах и возможностях.

ключевые слова: натуральный шелк, линейная плотность, загар, веревка, ткацкий станок, шарф-газировка.

Annotation: this article presents the technology for the production of a new type of handkerchief gauze from natural silk. In order to expand the range of handkerchiefs, we will talk about a new type of silk handkerchief, its advantages and possibilities, the structure of which is based on ragojka wrapping, a new type of silk handkerchief.

keywords: natural silk, linear density, tanda, Argan, weaving loom, handkerchief gauze.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2023 yildagi PQ-73 sonli "ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida yuqori sifatli ipak maxsulotlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish, respubika ipakchilik tarmog'i korxonalarining barqaror faoliyat yuritishni hamda ipakchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirishni ta'minlash, shuningdek, ipakchilik tarmog'ida ilmiy salohiyatni oshirish ko'zda tutilgan.[1]



Tabiiy ipak – aql bovar qilmaydigan yengil mato bo'lib, insonlarni o'ziga jalb qila olish xususiyatiga ega va o'zining ajoyib yumshoqligi, nafisligi bilan ipak-mato dunyosida alohida o'ringa ega. Tabiiy ipak-bu ipak qurti pillalaridan olinadigan juda yupqa, yengil va iplar ko'rinishidagi yagona yigirilmaydigan tabiiy tola. Ipak matolar olami juda keng chunki bunday matolar turiga kimyoviy tolalar va tabiiy ipakdan

aralash holatda ishlab chiqarilgan gazlamalar kiradi. Har bir gazlamaning esa bir birida ajralib turadigan jihatlari mavjud. Ipak mato havoni yaxshi o'tkazish qobilyati bilan tanadagi haroratni mo'tadil saqlay oladi. Shu sababli, ipakdan tayyorlangan kiyimlar turli iqlimlarda va yil davomida kiyish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Ipak yuqori darajada changni va terini yutib, namlikni yaxshi ushlab turish xususiyatiga ega. Bundan tashqari, u bo'yoqlarni yaxshi o'zlashtiradi. Bu esa murakkab naqshlarni yaratish imkonini beradi. Ipak mato havoni yaxshi o'tkazish qobilyati bilan tanadagi haroratni mo'tadil saqlay oladi. Shu sababli, ipakdan tayyorlangan kiyimlar turli iqlimlarda va yil davomida kiyish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Ipak yuqori darajada changni va terini yutib, namlikni yaxshi ushlab turish xususiyatiga ega.


Asosiy qism.

To'qimachilik sanoatida turli usullarda mato ishlab chiqarish texnologiyalari qo'llaniladi, va har bir usulning o'ziga xos afzalliklari mavjud. Ragojka – bu yengil va mustahkam to'qimalar olish uchun qo'llaniladigan mashhur o'rilishlardan biri bo'lib, ayniqsa ro'molbop matolar ishlab chiqarishda keng foydalaniladi.

Ragojka – bu hosila o'rilishlar turiga kirib arqoq va tanda iplarini kuchaytirish orqali olinadi. Ushbu usulda to'qima juda zich va mustahkam bo'lib chiqadi, shu bilan birga o'rtacha elastiklikka ega bo'ladi. Ragojka o'rish natijasida to'qima silliq, bir tekis va yorqin bo'lib, u ro'mol ishlab chiqarishda afzal ko'riladi.



1-rasm. Ragojka o'rilish turi



1-rasm. Tabiiy ipakli strukturasi ragojka o‘rilishli ro‘molbop to‘qimaning texnologik zanjiri

Ragojka o‘rilishida ishlab chiqarilgan ro‘molbop matolar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Yumshoq va silliq sirt: Ragojka usuli iplarni bir tekis joylashtiradi, bu esa ro‘molni qulay va estetik jihatdan jozibador qiladi.

2. Havo o‘tkazuvchanlik: Ushbu usul orqali to‘qilgan matolar nafas oluvchi xususiyatga ega bo‘ladi, bu esa ro‘molni issiq ob-havoda ham qulay qiladi.

3. Mustahkamlik va uzoq xizmat muddati: Ragojka o‘rishda iplar orasidagi zichlik matoning mustahkam bo‘lishini ta‘minlaydi.

4. Yorqinlik va rang-baranglik: Ragojka usuli ranglarni yaxshi qabul qiluvchi va uzoq muddat saqlovchi sirt yaratadi.

Afzalliklari va qo‘llanilishi: Ragojka usulida ishlab chiqarilgan matolar quyidagi afzalliklarga ega.

Estetik jihatdan jozibador: Bunday matolar turli naqsh va ranglarda ishlab chiqarilishi mumkin, bu esa ro‘molning xaridorgirligini oshiradi.

Ekologik tozaligi: Tabiiy xomashyo ishlatilishi sababli matolar ekologik xavfsizdir.

Raqobatbardoshlik: Ragojka usulida olingan matolar sifati va ko‘rinishi jihatidan boshqa texnologiyalarga nisbatan ustundir.

Bu matolar nafaqat ro‘mol uchun, balki turli kiyim-kechak va aksessuarlar ishlab chiqarishda ham qo‘llaniladi.

Xulosa

Tabiiy ipakli strukturasi ragojka o‘rilishli bo‘lgan, ro‘molbop matolar ishlab chiqarish texnologiyasi yuqori samaradorlikka ega. Ushbu usul yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotlar yuqori sifat, chidamlilik va estetik jozibadorlikni ta‘minlaydi. Kelajakda ushbu texnologiyani rivojlantirish orqali matolar assortimentini yanada kengaytirish va xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2023 yildagi PQ-73 sonli qarori.
2. Alimova X.A, X.X. Umurzakova, J.A Axmedov “Ipak ishlab chiqarish chiqindisiz texnologiyasi” leksiya kursi Toshkent- 2017 yil
3. Ataxanov A.K, Parpiyev X, Tojimirzayev S.T “ Разработка технологи для получения шёлкового волокна из отходов кокона” технический науки 2021 г
4. Mirzaxonov M, Valiyev G.N “Tabiiy ipakdan yangi turdagi ro‘molbop gazlamalar ishlab chiqarish texnologiyasi” ilm-fan va innovatsion rivojlanish 2019-yil.
5. A. E Gulamov ,N.M Islambekova, A.P Eshmirzayev, U.N Azamatov “To‘qimachilik maxsus texnologiyasi” kitob Toshket-2018